

## IJTIMOYIY LIRIKADA POETIK KASHFIYOTLAR (FAXRIYOR IJODI MISOLIDA)

Buriyeva Firuza, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,  
Samarqand, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

## POETICAL EXPERIENCES IN SOCIAL LYRICS (FAKHRIYOR'S SCIENTIFIC WORK)

Burieva Firuza, Uzbek-Finnish Pedagogical Institute, Samarkand,  
Philological Sciences Doctor of Philosophy (PhD)

## ПОЭТИЧЕСКИЕ ОПЫТЫ В СОЦИАЛЬНОЙ ЛИРИКЕ

### (НА ПРИМЕРЕ ТВОРЧЕСТВА ФАХРИЁРА)

Буриева Фируза, Узбекско-Финляндский педагогический  
институт, Самарканд, доктор философии по  
филологическим наукам (PhD)



<https://orcid.org/0009-0006-6102-5895>

e-mail:

[feruzaburiyeva79@mail.ru](mailto:feruzaburiyeva79@mail.ru)

**Annonatsiya:** Mazkur maqolada she'r san'ati va shoirlik, uning hissiylik sifati hamda inson ruhiyatiga ta'sirchanlik vazifasi; shuningdek, ijodkor subyekt va jamiyat dialektikasi, adabiyotning ijtimoiy hayot bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanishi kabi masalalarga to'xtalinadi. Unda, asosan, ijtimoiy lirika va uning o'zbek adabiyotidagi takomili borasida kengroq fikr va mulohazalar berilgan bo'lib, ular 80-yillar avlodiga mansub iste'dodli shoir Faxriyor ijodiga mansub bir qancha she'rlarning tahlil va talqinlari orqali asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** she'r san'ati, garmoniya, hajv, an'anaviylik, ijtimoiy lirika, epitet, kinoya, tashbeh, obraz, poetik izlanish.

**Abstract:** In this article, the art of poetry and poetry, its emotional quality and the role of influencing the human psyche; Also, the author's subject and society's dialectic, the development of literature in integral connection with social life are discussed. It mainly contains broader opinions and comments about social lyrics and its improvement in Uzbek literature, which are based on the analysis and interpretation of several poems by the talented poet Fakhriyor, who belongs to the generation of the 80s.

**Key words:** art of poetry, harmony, humor, traditionalism, social lyrics, epithet, irony, allusion, image, poetic research.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается искусство поэзии, ее эмоциональное качество и роль воздействия на психику человека; Также обсуждается авторская тема и диалектика общества, развитие литературы в неразрывной связи с общественной жизнью. В основном он содержит более широкие мнения и комментарии о социальной лирике и ее совершенствовании в узбекской литературе, которые основаны на анализе и интерпретации ряда стихотворений талантливого поэта Фахриёра, принадлежащего к поколению 80-х годов.

**Ключевые слова:** искусство поэзии, гармония, юмор, традиционализм, социальная лирика, эпитет, ирония, аллюзия, образ, поэтическое исследование.

**KIRISH.** Aslida, she'r haqida so'z yuritganda unga nisbatan "hissiy" atamasini ishlatish noo'rin, negaki she'r shunday ham inson ichki

dunyasining in'ikosi, uning oniy kayfiyatlarining jilvasi hisoblanadi. Hatto X asrda she'r ilmi haqidagi ilk tadqiqotlardan hisoblangan Ibn Sinoning "She'r

san'ati" risolasida she'rning inson ruhiyati bilan aloqadorlikda paydo bo'lib, uning tuyg'ulariga ta'sir etishini "g'araz", ya'ni maqsad qilishi qayd etiladi. Buning uchun mutafakkir arab va yunon adabiyotidan misollar keltiradiki, she'r nazariyasiga oid ming yillarcha avval bildirilgan ushbu qarashlarning to hozirgacha ham ayni ahamiyatga ega ekanligi kishini hayratga soladi. Bu bilan aytishimiz mumkinki, insoniyatning har qanday buyuk qadriyatlarni o'zgarimas saqlashga intilishi adabiyot va adabiy an'analarga munosabatida ham aks etgan. Jumladan, qomusiy olimning "lahn" – garmoniya (kuy)[3.126], badiiy so'z, she'riy vazn haqidagi qaydlari Sharq adabiyotshunosligida she'riyat borasida amalga oshirilgan barcha tadqiqotlar uchun ilk dasturulamal bo'lganligini ta'kidlamog lozim. Biz esa uning she'rni inson ruhiyatiga ta'sir kuchini ustuvor deb bilganligi haqidagi qarashlarini keltirib, yuqorida qayd etgan fikrlarimizni dalillaymiz: "She'r uch xil narsa bilan xayolga ta'sir etadi va taqlid qilinadi; ularning birinchisi lahn – garmoniya bo'lib, bu bilan she'r kuylanadi. Garmoniya esa, shak-shubhasiz, inson ruhiga ta'sir etadi. Har bir maqsadning holatiga qarab lahn mos kelaveradi. Bunda faqat uning g'alizligi va mayinligi, yo bo'lmasa, o'rtamiyona bo'lishiga qaraladi. Xuddi shu taxlitda taqlid – tashbihning o'zi ham kishi ruhiga ta'sir etadi. Shu ta'sir natijasida kishi ruhi yo g'amli, yo g'azabli, yo undan boshqa bir yo'sindagi holatga tushadi"[3.99].

Davrlar mobaynida she'rdagi yetakchi xususiyatlar turfalandi: intellektual-falsafiy, ironik, hajviy qarashlar hamda inson ruhiyati va histuyg'ulariga daxldor boshqa bir qancha belgilar bilan farqlandi. Bular har bir ijodkorning uslub va manerasida uning dunyoqarashiga mos ravishda u yoki bu darajada namoyon bo'ldi. Masalan, hozirgi o'zbek adabiyoti misolida oladigan bo'lsak, Asqad Muxtor she'riyatining adabiyotshunoslikda "falsafiy she'riyat" deb, Abdulla Oripov nazmidagi intellektuallikning, Xurshid Davron she'riyatidagi epik ko'lamdorlik, tarixiylik yetakchi ekanligi e'tirof etiladi. Lekin she'rlar tabiati uchun eng muhim jihat baribir ham inson hissiyotlaridan ko'chib boshqa bir inson tuyg'ularini qo'zg'atish bo'lib qolaverdi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** Adabiyotlar tahlili ijtimoiy lirikani chuqurroq anglash va uning asosiy xususiyatlarini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Ushbu bo'limda tahlil qilingan manbalar, ularning ilmiy va poetik

qimmatini haqida fikr yuritiladi. O'zbek va jahon adabiyotining taniqli shoirlari lirikasi chuqur o'rganilib, ijtimoiy mavzularning poetik aks ettirilishi, estetik qadriyatlar va zamonaviylik bilan bog'liq jihatlar tahlil qilindi. Masalan, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va Nazrul Islom kabi shoirlarning asarlari bu borada muhim ahamiyatga ega. Lirikani janriga bag'ishlangan nazariy asarlar, jumladan, poetika, estetika va adabiyotshunoslik bo'yicha zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asos qilib olindi. Ushbu asarlar lirikaning jamiyatga ta'siri va inson ruhiyatini shakllantirishdagi rolini anglashga yordam berdi. Adabiyotning ijtimoiy sharoit bilan bog'liqligi, tarixiy davrlarda uning ma'nosi va vazifasi haqidagi tadqiqotlar ham e'tiborga olindi. Ushbu yondashuv ijtimoiy lirikaga kengroq kontekstda yondashishga imkon berdi.

**MUHOKAMA.** 80-yillar shoirlari ijodida esa yuqorida ta'kidlanganidek asosiy hajv mustabidlik va uning ijtimoiy va tabiiy oqibatlariga qaratildi. Davr ijodkorlari o'zining jamiyatga munosabatlarini ba'zan kulgiga asoslangan va ayrim hollarda kulgisiz hajv usulida oshkor etdilar. Xususan, Faxriyor ijodida yaxlitligicha hajv ustuvor bo'lgan she'rlar unchalik ko'p bo'lmasa-da, hajviy sifatlash va tashbehlar va hajv ifodalovchi badiiy unsurlarni ko'plab uchratamiz. Shoirning kinoyasi nihoyatda ohorli, u bu borada ham novatorona poetik kashfiyotlar qiladi. Jumladan, u paxtaga berilgan *yakkahokimlik* sifatini quyidagicha ifoda etadi:

*Paxta esa, paxta kulmaydi,*

*Maymun emas, yig'lagani u.*

*Xushomadlar kelmas qo'lidan,*

*U – shahanshoh, badqovoq mangu*[5.58].

Shoir she'rning keyingi bandlarida ham kinoyaviy vositalarda originallikka erishadi, jumladan, paxtadagi oqlik sifatini taslim bo'lganlikni anglatuvchi oq bayroqqa mengzaydi: "*Paxta esa yutqiziq uchun// Dalalarga tikilgan bayroq*"[5.58]. Umuman olganda, shoirning ijtimoiy lirikasi poetik izlanishlar tufayli o'zbek she'riyatida ushbu lirika shaklini sezilarli darajada yuksaltirgan desak, haqli e'tirof bo'ladi. Shoir o'zining ijtimoiy qarashlarini hech qachon yalang'och tasvirlarda to'g'ridan to'g'ri ifodalamaydi, so'zlar, obrazlar, badiiy vositalar ustida poetik izlanishlar olib boradi. Xususan, uning "Dunyosima" deb nomlanuvchi she'rda bu yaqqol namoyon bo'lgan:

**She'riy kompozitsiyada novatorlik:** she'r to'rtliklardan iborat to'rttadan bandni tashkil etuvchi ikki qismli tuzilishga ega.

**So'zlikda kashfiyot:** she'rning sarlavhasi, ya'ni "Dunyosima" shoirning topilmasi hisoblanib, biz ushbu so'zni boshqa matnlarda uchratmaymiz.

**Mifologik tasavvurlarga o'zgartirish kiritish:**

*Gunohlar o'smoqda, o'smoqda ular.*

*Og'irlashayotgan Zaminning vazni  
endi bir ho'kizga og'irlik qilar.*

*O'sayotgan gunohlar vazmin.*

She'rning dastlabki ikki bandi asosan gunoh tushunchasining yoritilishiga bag'ishlanganligi bois uchinchi bandda bu so'z nihoyatda zalvorli tuyuladi hamda shoirning poetik fikri – nozik xilqat hisoblanmish ayol zoti umrini paxtazorlarda o'tkazilishiga sababkor bo'lgan, uning o'zini va farzandini qarovsiz qoldirilishiga olib kelgan tuzumning o'sib borayotgan gunoh deya qayd etilishi ayni mos istiora bo'lib, ta'sirchan ifoda kasb etadi.

*Gunohlar ayolni paxtaga haydar,*

*Gunohlar – paxtaning taroziboni.*

*Ayolning vaqti yo'q.*

*Bizlarda Oydan bo'lak*

*hech kim raqs tushmas*

*"Orazibon"ga...*

*Gunohlar o'smoqda,*

*o'smoqda ular.*

*Ular ham dev kabi, ajdarho kabi*

*bolalarni yeb kun ko'rar.*

*Kelajak buruqsitib chekmoqda jabr...[5.58]*

**NATIJA.** Sharq mumtoz

adabiyotshunosligida she'rga san'at darajasida qaralgan bo'lib, she'riy tahlillarda, asosan, aniq nazariy qoidalarga ega uch ilm, ilmhoyi segona: ilmi aruz, ilmi bade', ilmi qofe'ga asoslanilganligi ma'lum. Mazkur ilmlar qamrovi nihoyatda keng bo'lganligi bois barcha shoirlar nazmi bir xil mezon asosida inkishof etilib, muxlislar oldida bahosini topa bilgan. An'anaviylik ustuvor bo'lgan mumtoz she'riyat uchun tahlil qoidalarining yakrang bo'lishi tabiiy bo'lib, bu hatto zamonaviy o'zbek adabiyotida ham mumtoz she'riy janr-shakllardagi asarlarga ham to'g'ri keladi. Lekin Sharq-u G'arbning eng yaxshi an'analarni o'ziga singdirgan, shu bilan birga, poetik novatorliklarga intilgan zamonaviy she'riyat talqin va tahlillarda ham rang-baranglikni talab etadi. Chunonchi, 60-yillar she'riyati tahlillariga mos keluvchi adabiy-estetik mezonlar 80-yillar

she'riyatiga to'g'ri kelmasligi yoki bir davrda adabiyotga kirib kelgan shoirlar ijodi ham turli yondashuvlar bilan kashf etilishi ma'qul bo'lib qoldi. Bu esa adabiyotshunoslar oldiga ulkan vazifalar qo'ydi, yangi ilmiy-adabiy tadqiqot usullari ustida izlanishlarga undadi. Yaqin yillarda zamonaviy lirik tur tadqiqi, she'riy asarlar nazariyasiga bag'ishlangan eng yaxshi ilmiy manbalardan biri J.Kamolning "She'r san'ati"[2] risolasi hisoblanadi. Olim lirik tur nazariyasiga oid o'zigacha bo'lgan qarashlarni umumlashtirish barobarida lirikada kechinmaning ifodalanishi, lirik kompozitsiya, lirik xarakter va konfliktning namoyon bo'lishi, zamonaviy she'riyatdagi poetik vositalar borasida teran fikrlar bildiradi.

Jumladan, adabiyotshunos olim she'riy asarlar kompozitsion tuzilishini shoir hissiyotlariga ko'ra tasniflaydiki, biz Abduvali Qutbiddin, Faxriyor kabi novator shoirlar she'riyati tahlillarining aynan ana shu nuqtalariga e'tibor qaratib, ular uslublarining individualligi, she'riyatining poetik jozibasini kashf etishga urinamiz. Aynan ushbu shoirlar ijodi misolida o'zbek she'riyatining 80-yillar avlodi ijod yo'nalishi haqida xulosaviy fikrlarga kelish mumkin, deb o'ylaymiz.

Bizga ma'lumki, ushbu davr faqatgina adabiyotda emas, jami Sobiq sovet ittifoqi tarkibidagi barcha davlatlarning ijtimoiy-siyosiy hayoti, madaniyatida evrilish davri hisoblanadi. Adabiyot endi siyosat bo'yinturug'idan charchagan, inson ko'ngli, ruhiyati haqida o'ylay boshlagan edi. Bu esa ular she'riyatida goh Sharq sohir she'riyati an'analarning, goh esa g'arbona erkinlikka asoslanuvchi poetik belgilar va modern alomatlarining yaqqol ko'zga tashlanishiga olib keldi. Bu davr she'riyatidagi xos bo'lgan eng xarakterli jihat – izlanuvchanlik. Mazkur avlod vakillarining aksariyati ijodida dastlab ijtimoiy-siyosiy mavzular, mavjud tuzumdagi ayrim illatlarga bo'lgan qarashlarini tanqidiy va kinoyaviy ifoda etish ko'zga tashlanadi. Chunki siyosiy o'zgarishlar ostonasida turgan jamiyatning barcha tabaqa vakillari ham shu kabi kayfiyatda bo'lib, ijod ahlining ham bundan mustasno bo'la olmasligi tabiiy hol edi. Bularning bari adabiyotda ijtimoiy mazvuning yetakchi ekanligini bildirib, buni ushbu yillarda adabiyotga qadam qo'ygan shoirlarning aksariyati dastlab ijtimoiy lirika shakllarga murojaat etganligidan anglash mumkin.



Kuzatishlardan biz adabiyotshunoslikda shoirning jamiyatga faol munosabat bildiruvchi asarlariga ba'zan badiiy nomukammal deya qaralgan holatlarga ham duch kelamiz. Ammo jahon va o'zbek adabiyotshunosligida ijtimoiy lirika tushunchasi aniq nazariy tamoyillarga ega bo'lib, uning namunalari o'zining barqaror mavqeyini egallab kelayotganligi ham bor gap. Bu esa "San'at asaridan ijtimoiy ma'no izlash adabiyotni jo'nlashtiradi, biroq san'at ijtimoiy ma'nosiz shunchaki bejirim libosga o'xshab qoladi"[4.448], degan fikrga qo'shilishimizga undaydi. Tahlil va mulohaza etib ko'rsak, badiiy asardagi jamiyat bilan vobastalik har qanday ijodkor asarida qaysidir darajada bo'y ko'rsatganligiga guvoh bo'lamiz. Shunday ijodkorlar borki, tarixiy vaziyat taqozosiga ko'ra siyosiy notinch zamonlarda hayot kechirgan bo'lib, asarlarining aksariyat qismi ijtimoiy mavzudadir. Masalan, XVII asr o'zbek shoiri Turdi Farog'iyning bizga yetib kelgan oz miqdorda (18ta) she'rlarning yoppasiga ijtimoiy-siyosiy mazmundagi she'rlar ekanligini ham ma'lum. Shuningdek, hozirgi o'zbek adabiyotshunosligida sobiq tuzum davrida "sotsialistik realizm" metodi haqida, asosan, biryoqlama tushunchalar shakllanib, uning ma'nosi sotsialistik jamiyatga xizmat qilish, asarlar syujetida bu tuzumning afzalliklarini ifoda etish, deb uqtirildi. Vaholanki, badiiy ijod ham tarixning ajralmas bo'lagi ekanligi, u ham moziydan xabar va saboqlar berishi nazarda tutilsa, ijtimoiy xarakterli asar uchun ham batafsil tahlil va talqinlar zaruriyligi ko'zga tashlanadi. Albatta, badiiy adabiyot shovqinni, nasihatgo'ylikni, haybarakallachilikni hech qachon yoqlamagan, unda barcha xususiyatlar, shuningdek, siyosiy g'oyalar ham o'ta nafislik va mahorat bilan ifoda etilmog'i kerakki, bu inkor etib bo'lmas badiiyat tamoyili. Ammo mustabidlik davridagi adabiyotda bunga hamisha ham amal qilinmagani rost, chunki davr ijodkordan birmuncha publitsistik tashviqiylikni, hayotni go'zal va jamiyatni baxtli deb aytishni talab etardi. Shu bois ham sobiq sho'rolar davrida yaratilgan eng yaxshi asarlarga adabiyot mulkiga aylanib qoldi.

Ijodning nozik tabiati, badiiylikning faqat xos adabiyot ahli uchun anglanishi mumkin bo'lgan qonuniyatlari, aytish mumkinki, 80-yillar shoirlarining ijtimoiy mavzudagi asarlarida ham ko'zga tashlanadi. Ko'p uzoqqa bormasdan buni 80-yillarda adabiyotga kirib kelib, 90-yillarda "ko'ngil she'riyatini" deb ataluvchi badiiy atamaning yuzaga

kelishida yetakchi va sababkor ijodkorlardan bo'lgan Faxriyor she'riyatini misolida oladigan bo'lsak, u ijod faoliyatini boshlagan dastlabki yillarida tuzum uchun aktual mavzularda bir qancha asarlar yaratganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, shoir ijodida "Aksilfalsafa" (1989) she'ridagi

*"Biroq daho tangri emasdir,  
uning qo'lida  
faqat g'oya bor"* [5.10],

- degan misralar mazkur davr ijodkorlarining erk va mustabidlik haqida uzil-kesil fikrga kelganligidan dalolat beradi. Yoki shoirning "Aksilekologiya" (1985) she'rida ham ushbu fikrlar rivojlantiriladi. Undagi *"payhon qilar odamni ekin"*[5.11] jumlaridagi ma'no-mazmunda gumanizmning ustuvorligi, shoir ijodidagi oz sonli bo'lsa-da, ijtimoiy-siyosiy mavzudagi she'riyatining asosini tashkil qiladi. Shoirning bu kabi asarlari tahlil qilinganda ijodkor mahorati uning ko'ngil va ruhiyat tovlanishlarini aks ettirgan she'rlariga qaraganda ham yaqqolroq namoyon bo'ladi. Negaki nomlanish va mavzusiga ko'ra publitsistik kayfiyat paydo qilishi lozim bo'lgan lirikaning ushbu shakli ijodkor izlanuvchanligi tufayli betakror poetik ifodaviylik kasb etadi. Masalan, shoirning "Ekologik she'r"ida (1985) daryo allegoriyasi orqali muallif insoniyat uchun global muammolardan biri bo'lgan chuchuk suvlarning zaharlanishini mavzu etib, uning foje oqibatlarini bor bo'yi bilan ko'rsata oladi. She'rda daryo jonlantirilgan qiyofada aks ettirilgan ekan, unga *bulg'anchiq, loyqa, "zahar ichgan"*lik, nihoyat, *xasta* epitetlari beriladi hamda unga quyidagi murojaat orqali mustabid jamiyatdagi yana bir muammo ko'tariladi:

*Daryo,  
Imtiyozlar guvohtonmasi  
Senda yo'q-ku?  
Navbat saflari har yoq.  
Do'xtirlarga navbatda turib  
Qurib ketmasmisan, kasalmand  
daryo?*[5.17]

Ko'rinadiki, shoir mustabidlikning nafaqat insonga, balki, tabiatga shafqatsiz va qo'pol munosabatini aks ettiruvchi betakror poetik vositalarni tanlaydi hamda ular orqali ijodkorning zaharxandasi, noroziligi hamda mazlum jamiyatga achinishlari ta'sirchan ifodasini topadi. Shoirning bunday she'rlari uchun ustivor usul hajv bo'lib, bu borada ham uning jahon va o'zbek adabiyotidagi ko'pgina shoirlar ana'anasini davom ettirganligini

ma'lum bo'ladi. Zero, lirikaning muhim va yirik shaklini tashkil etgan ijtimoiy she'rlarning aksariyati hajv yo'nalishida yuzaga kelgan, "Xuddi shu yo'nalishda hayot va jamiyatdagi yaramas illatlar g'azab va nafrat bilan ochib tashlangan, tekinox'r tabaqalarning kirdikorlari, ular turmushidagi butun qabih, reaksiyon din ahllari faoliyatidagi qalbakilik, aldov, shaxslar tabiatidagi xudparastlik, manmanlik, buzuqlik, pastkashlik, ochko'zlik kabi g'ayriinsoniy belgilar badiiy so'z vositasida fosh qilinib, rad etilgan"[1.5]. Siyosiy tuzum, davr va jamiyat o'zgara borishi bilan tabiiyki, shoir satirasi ham obyektini o'zgartira boradi. Chunonchi, biz hazrat Navoiyning turli asarlarida riyokor din peshvolari, munofiq vazirlar, firibgar zohidlarning hajv tig'iga duchor bo'lganligining guvohi bo'lsak [1.140], Maxmur ("Hapalak"), Muqimiy ("Tanobchilar", "To'y") kabi shoirlar ijodida sodda xalqni talovchi amaldorlar, Turdi Farog'iyda ("Mulk", "Subhonqulixon") adolatsiz hukmdorlarga nisbatan qahqahasini ko'rishimiz mumkin.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytganda, keyinchalik avangard usullar ijodiy individulligini belgilagan o'zbek shoiri Faxriyorning jamiyatning faol a'zosi sifatida ijtimoiy lirika namunalari ham

yaratganligi, shoir mavjud tuzum illatlarini fosh etishda mumtoz Sharq adabiyoti an'alarini davom ettirib kulgili va kulgisiz hajv usullarini qo'llaganligi, shuningdek, barcha XX asr ijodkorlari qatorida uning bu kabi asarlarida g'arbonsa an'alar ham davom ettirilgani ko'zga tashlanadi. Ammo, shoir she'riy poetikani yuzaga keltirishda novatorligi, hatto postmodernizmning ba'zi ustuvor tamoyillariga asoslanganligini ayta olamiz.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Абдуғафуров. Навоий ижодида сатира. Т.: Фан нашриёти, 1972. – 260 бет.
2. Жамол Камол. Шеър санъати. Сайланма. Олти жилдлик. IV жилд. Т.: Янги аср авлоди, – 448 бет.
3. Ибн Сино. Шеър санъати. Гафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 130 бет.
4. Назар Эшонкул. Мендан "мен"гача: адабий-танқидий мақолалар тўплами. 1 қисм. – Т. Академнашр, 2014. – Б.448.
5. Фахриёр. Аёлғу. Шеърлар ва дostonлар. Т.: Шарқ нашриёти, 2000. – 256 бет.

